**TOSHKENT SHAHRI MIROBOD TUMANI HOKIMINING**

# QARORI

2024-yil 7-noyabr 332-14-199-Q/24 Mirobod tumani hokimligi

**Mirobod tumani,“Yangi Qo‘yliq” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi ichki ko‘chalarida avtomobillar harakatni bir tomonlama tashkil qilish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 25-moddasiga asosan hamda hududda avtomobillar harakatini tartibga solish, piyodalar xavfsizligini ta’minlash maqsadida va “Yangi Qo‘yliq” mahalla fuqarolar yig‘inining 2024-yil 17-maydagi 2-sonli murojaatini inobatga olib,

**QAROR QILAMAN:**

1. Mirobod tumani Yangi Qo‘yliq mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Qo‘yliq-4 dahasi 2-sonli ko‘p qavatli uy oldidan kiruvchi hamda 22-sonli ko‘p qavatli uyning yon qismidagi yakunlanuvchi ko‘chada, 14-sonli ko‘p qavatli uy oldidan kiruvchi hamda 9/1-sonli ko‘p qavatli uy orqa qismida yakunlanuvchi ko‘chada hamda 21A-uy oldidan kiruvchi va 6-A uy orqa tomonida yakunlanuvchi ko‘chalarda avtomobillar harakati bir tomonlama tashkil etilsin.

2. Mirobod tumani hokimining o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi (F.Najmiddinov):

10 kun Ichida Mirobod tumani Yangi Qo‘yliq mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Qo‘yliq-4 dahasi 2-sonli ko‘p qavatli uy oldidan kiruvchi hamda 22-sonli ko‘p qavatli uy yon qismida yakunlanuvchi ko‘chada, 14-sonli ko‘p qavatli uy oldidan kiruvchi hamda 9/1-sonli ko‘p qavatli uy orqa qismida yakunlanuvchi ko‘chada hamda 21A-uy oldidan kiruvchi va 6-A uy orqa tomonida yakunlanuvchi ko‘chalarda avtomobillar harakati bir tomonlama tashkil etish bo‘yicha yo‘l xaritasi (sxemasi) ishlab chiqilsin.

3.Mirobod tumani hokimligi Devonxonasi (M.Toshpulatova):

Mazkur farmoyish nusxasi Toshkent shahar Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasiga yuborilishi ta’minlansin.

4. Mirobod tumani hokimining o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi (F.Najmiddinov):

Mirobod tumani Yangi Qo‘yliq mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Qo‘yliq-4 dahasi 2-sonli ko‘p qavatli uy oldidan kiruvchi hamda 22-sonli ko‘p qavatli uy yon qismida yakunlanuvchi ko‘chada, 14-sonli ko‘p qavatli uy oldidan kiruvchi hamda 9/1-sonli ko‘p qavatli uy orqa qismida yakunlanuvchi ko‘chada hamda 21A-uy oldidan kiruvchi va 6-A uy orqa tomonida yakunlanuvchi ko‘chalarda avtomobillar xarakatini bir tomonlama tashkil etilishi munosabati bilan ushbu ko‘chaga tegishli yo‘l belgilarini o‘rnatish choralari ko‘rilsin.

5. Tuman Matbuot xizmati:

Mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy elon qilingan kundan kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Mirobod tumani hokimining o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi F.Najmiddinov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **Sayfutdinov A.N**